



RAQS SAN'ATINING SHAXS MADANIY-MA'NAVIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

Nazarova Irodaxon Zayniddinovna

Farg'ona davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti

"Musiqiy ta'lim va madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

Tel: +99890 1655263

Annotatsiya: *maqolada raqs san'ati haqida hamda go'zallikka intilgan insonning, ayniqsa yoshlarning go'zallikni anglashgina emas, balki go'zallikni yaratishga, unga to'g'ri munosabatda bo'lishga, asrab- avaylashga yo'naltirishi, buning asosida insonning tasavvuri, tafakkuri taraqqiy etishi, bunday obyektiv va subyektiv hodisalar asosida yosh avlodda vatanga muhabbat, nozik estetik did, go'zallikni anglashga va uni ehtiyotlashga intilish kabi ma'naviy tarbiyaning muhim elementlari shakllishi haqida ma'lumotlar keltirilgan..*

Kalit so'zlar: *raqs, go'zallik, an'ana, sa'hat, meros. estetika, jamiyat, shaxs, ma'naviyat, madaniyat, tarbiya, qadriyat, estetika, dunyoqarash.*

San'at – go'zallikka tegishli xususiyatlarni birlashtiradigan o'ziga xos borliqni aks ettiradi. Bu olam barcha elementlari va hodisalarida nafosatni aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflanishi mumkin. Go'zallik borliqning barcha shakllarida tabiat, jamiyat va inson hayotida ishtirok etib, uni muntazam go'zallashtirib boradi.

Chunki inson tabiatda va jamiyat ijtimoiy hodisalarida aks etayotgan nafosatni o'zlashtirib, uning estetik ongi ham buni aks ettirib, ruhi tobora go'zallik kasb etib boradi.

Go'zallik ijtimoiy mohiyatga ega. Chunki insonning jamiyatda va ijtimoiy hayotida amalga oshirayotgan har bir hatti-harakatining, faoliyatining va uning natijasida yaratayotgan yangilikning mohiyati ijtimoiylik, axloqiylik, garmoniya hamda go'zallikka aloqador bo'lib, o'zida bu xususiyatlarni aks ettiradi. Demak, go'zallik har bir narsa, hodisa va insonning ajralmas xususiyati hisoblanadi. Inson o'z hayoti davomida doimo ma'lum ijod bilan shug'ullanadi. Bunday ijod inson amalga oshirayotgan xilma-xil faoliyatining barcha sohalarida: ishlab chiqarishda, intellektual faoliyatda, biror bir korxonada egallab turgan lavozimida va boshqalarda aks etadi. Ijod faqat san'at asari sifatida anglanilmasligi lozim. Insonning hayoti va antropologik-ijtimoiy borlig'iga ijodiylik xos, Chunki uning doimo o'zidan, faoliyatidan qoniqmasligi va doimo ehtiyojlarining o'sib borishi muntazam uni ijod qilishga yo'naltiradi.

San'at asari inson hayotini, jamiyatda yuzaga kelayotgan va amalga oshayotgan hodisalarni go'zallik nuqtayi nazaridan badiiy talqin etadi. Har bir san'at asari va uning ijodkorida ijtimoiylik xususiyati aks etadi. Ijodkor shaxs jamiyat a'zosi, jamiyatda amalga oshayotgan ijtimoiy jarayonlarning subyeksi va ishtirokchisi sifatida faoliyat



olib boradi. Shunga ko'ra u ma'lum ijtimoiy funktsiyalarni bajaradi. Uning ijodi asosida amalga oshadigan estetik faoliyati san'atning qaysi turiga yo'nalgan bo'lishidan qat'i nazar jamiyatning ijtimoiy xususiyatlarini va unda jamiyat va uning a'zolari hayotining qirralarini aks ettiradi.

Borliq, jamiyat, insonni o'rganadigan barcha fanlar ma'lum ma'noda estetik tarbiya bilan ham shug'ullanadi. Estetika – nafosat falsafasi. Nafosat falsafasi go'zallik tarbiyasining borliqni go'zallik asosida anglash uchun ishlab chiqqan qonun-qoidalari, tartiblari asosida shaxsni tarbiyalaydi, inson tanasi garmoniya, ruhiyati esa ko'tarinkilikni boshdan kechiradi, miya faoliyating faollaShuvi natijasida insonning mantiqiy fikrlashi yaxshilanadi hamda tasavvurni yuksaltiradi.

Raqs bilan shug'ullanish kishilarda o'zini yuqori tutish, kishilar orasida o'zini ruhiy xotirjam, omadli sezishga va jamiyatda o'ziga ishonch bilan tutishiga ta'sir etadi. Raqs kishida tashkillanganlik, ishchanlik xususiyatini shakllantiradi va irodani mustahkamlaydi. Har tomonlama barkamol shaxsning rivojlanishi uchun bilim olish bilan bir qatorda musiqa va raqs bilan shug'ullanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shvetsariyalik kompozitor va musiqa pedagogi Emil Jak Dal de Kroz musiqiy ritmik tarbiyaning usulini ishlab chiqdi. Uning fikricha, bola musiqa, raqs, qo'shiq orqali olamni anglaydi. Ya'ni, san'at borliqni anglashning usullaridan biri ularga olamni to'g'ri anglashi, go'zallikni his etishi, aqliy kuch, diqqat–e'tibor va kommunikabellik xususiyatlarini rivojlantiradi. Raqs harakatlari, bola tanasining harakatlari hatto uning aqliy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Harakatlar natijasida miya faoliyatining faollashuvi, aqliy energiyaning ortishi amalga oshadi.¹⁷⁵

Raqs san'ati o'zida shaxsning badiiygina emas, axloqiy tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir etib, rivojlantiruvchi ma'naviy-estetik salohiyatga ega. Chunki raqs san'atkorning emotsional xususiyatigina aks ettirmaydi. Raqsning muhim funktsiyalaridan biri uni ijro etuvchi va tomosha qiluvchi uchun estetik zavq va estetik lazzat bag'ishlashdan iborat. Raqs davomida bu ikki xil faoliyatni amalga oshirayotgan shaxsning ma'naviy-estetik salohiyati ortadi, unda nozik did shakllanadi. Bu jarayon shaxs ma'naviyati va madaniyatining, yuksak estetik didning shakllanishiga ta'sir etadi. Har bir insonda, ayniqsa, bolalarda go'zallikka nisbatan muhabbat shakllanadi. Ma'lumki, go'zallikni tabiat va jamiyat, millat hayotining har bir elementi va sohasida topish mumkin. Demak, raqs orqali jamiyat a'zosining ma'naviy tarbiyasi, vatanparvarlik, o'z vatani, millati, milliy tarixi va qadriyatlariga muhabbat tuyg'ulari shakllanar ekan.

Tarbiyaning muhim usullaridan biri yuqorida aytib o'tilganidek, estetik tarbiya hisoblanadi. Estetik tarbiya tizimida raqs muhim rol o'ynaydi, chunki raqs bilan shug'ullanadigan inson uni o'rab turgan borliqni, o'zi yashab turgan olamning go'zalligini his etish, uni asrab avaylash va e'zozlashni o'rganadi. Bunday ruhiy kechinmalar, go'zal tuyg'ular, hissiyot asosida go'zallikni, uning obyektiv asosi bo'lgan borliqni va hayotni anglaydi. Raqs san'ati go'zallikka intilgan insonning, ayniqsa

¹⁷⁵Sayfullayev B.S., Rustamov V.K.. Madaniy tatlbirlarni tashkil etish mahorati. -Тошкент.: «Fan va texnologiya», 2016, -B. 14.



yoshlarning go'zallikni anglashgina emas, balki go'zallikni yaratishga, unga to'g'ri munosabatda bo'lishga, asrab- avaylashga yo'naltiradi. Buning asosida insonning tasavvuri, tafakkuri taraqqiy etadi. Bunday obyektiv va subyektiv hodisalar asosida yosh avlodda vatanga muhabbat, nozik estetik did, go'zallikni anglashga va uni ehtiyotlashga intilish kabi ma'naviy tarbiyaning muhim elementlari shakllanadi.

Aytish zarurki, insonlarning madaniyati, san'atga munosabati, estetik ongi, milliy san'atga munosabatiga tuli hodisalar masalan, shahar hayoti va madaniyati ta'sir etadi. Ularning hayotiga shaharlashish, shahar madaniyatiga kirib borishini Sharqning buyuk tarixchisi, sotsiologi va faylasuf mutafakkiri ibn Xaldun sivilizatsiya (shahar hayoti) haqida yozib, uning qulayligi va boyligi ta'sirida kishilarning axloqiy qoidalari o'zgaradi, ular tobora o'zi uchun muhim va foydali narsalarni tanlab olish xususiyatini yo'qotib boradi, zararli narsalardan o'zlarini himoya eta olmay qoladilar, deb ko'rsatib o'tgan edi. Uning fikricha, sivilizatsiyaning salbiy ko'nikmalari va ularga bo'ysunish kishilar madaniyati, e'tiqodi va madaniyatining yo'qolib borishiga olib keladi¹⁷⁶.

Ma'lumki, hozirgi Globallashuv davrida milliy san'atning barcha turlariga keng tarqalayotgan ommaviy madaniyat ta'sir o'tkazmoqda. Ommaviy madaniyat tarkibida san'atning barcha turlarini qamrab oluvchi yuzaki, yengil - yelpi san'at asarlari, yevropacha san'at turlari, milliy madaniyat va milliy qadriyatlar, milliy musiqa va raqs san'atidan yiroq bo'lgan zamonaviy raqsning elementlari kirib kelmoqda. To'y va hashamlarda, ba'zi hollarda davlat tadbirlari va hatto televideniya taqdim etilayotgan ko'rsatuv va filmlarda ham nodir raqs namunalarimizni nojo'ya harakatlar bilan "boyitish"ga urinishni, buzib talqin etilishini ko'rishimiz mumkin.

Ommaviy madaniyatning hayotimizga bostirib kelishida dastlab ommaviy axborot vositalari asosiy rol ni o'ynaydi. Bugunga kelib reklama uning ajralmas yo'ldoshiga aylanib qoldi. San'atda yengil-yelpi ijod bilan elga tanilgan san'atkorlar armiyasi paydo bo'ldi. O'zlari shoir, o'zlari kompozitor bo'lgan, musiqiy maxsus bilimi bo'lmagan juda ko'plab guruhlar paydo bo'ldi va ular istaganicha o'zlarining mahsulotlarini reklama qilmoqdalar. Yoshlar esa shunday siyqasi chiqqan, lekin o'z muxlislarini topgan san'atkorlar armiyasi bilan yuzma-yuz turibdilar.

Demak ommaviy madaniyat bu xamma uchun bir xil ko'rinishdagi bir xil qolipdagi o'zini, o'zligini yo'qotish evaziga erishilgan bir xolatdir.

Bulardan tashqari xar bir korxonada, va tashkilot va maxalalarda targ'ibot ishlari to'xtovsiz davom ettirish, oddiy suhbat va muloqot majlis va o'tirishlarda xam ko'tara bilish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrning yoshlari o'ziga xos bo'lgan sharoitda ularning keskin tus olgan vaqtda yashamoqdalar. G'arbdan kirib kelgan haqiqiy madaniyatga aloqasi bo'lmagan "Ommaviy madaniyat" atamasi, bu ajnabiy holat barchani bir tusga, bir qolipga, bir xil

¹⁷⁶Очерки истории арабской культуры V-XV вв. Главная редакция восточной литературы.-Москва: Наука, 1982.- С.140.



ko'rinishga, bir xil turmush tarziga odatlantirishga, urf-odatlarimizdan, millatimizdan yuz o'girishiga o'rgatilsa, ota-bobolarimiz "qora" deb o'qtirishiga harakat qilmoqda.

Hindiston o'lkasining ozodligiga o'zining hissasini qo'shgan buyuk inson Maxatma Gandi shunday degan: "Men tashqaridagi bo'rondan qo'rqib, derazamni yopib qo'ya olmayman, chunki menga toza havo kerak. Shu bilan birga toza havo kerak ekan deb, derazamni katta ochib qo'ya olmayman, chunki meni uyimni chang-to'zon bosib ketishini xohlamayman". Ammo bugungi davrda ommani birlashtirish muommosi emas, balki ularni aynan qanday maqsad ostida birlashtirish, shuningdek, ularga nimani targ'ib qilish muhim masalalardan biri sanaladi.

Ularning tez tarqalishi, harakatlarining zamonaviyligi hamda yoshlar uchun maftunkorligi va jozibasi kuchli ta'sir kuchiga ega. Zamonaviy raqs elementlarining tarqalishi uchun sharoitlar mavjud. Internet tizimi, qulay kommunikatsiya, turli axborotning tez tarqalishi yuqorida qayd etilgan ommaviy madaniyat tizimidan o'rin olgan raqs shakllarini tez tarqalishi uchun imkon yaratadi.

Qayd etilgan hodisalar milliy san'atni, xususan milliy raqs san'atining mohiyatini hamda milliy xususiyatlarini himoya qilish, ularni avaylab, saqlab kelajak avlodlarga yetkazib berishni taqozo etadi. Buning uchun yoshlarni milliy san'at ruhida tarbiyalash, estetik immunitetini oshirish va ularning ongiga milliy san'atga muhabbat va ideallarni singdirish kabi ommaviy madaniyatga qarshi kurashning omillarini singdirish zarur. "Ommaviy madaniyatga qarshi kurashning eng samarali yo'li yigit - qizlarimizni yoshligidan boshlab yuksak estetik immunitetini kamol toptirish, madaniy saviya, did va farosat egasi, mustaqil fikrlaydigan, ma'rifatli qilib tarbiyalashdan iborat. Ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan yoshlar zamirida vayronkor g'oyalar yotgan "ommaviy madaniyat" namunalaridan xazar qiladi"¹⁷⁷.

Jamiyat milliy ma'naviyatning boshqa shakllari qatori milliy san'atning ham unga bo'layotgan turli ta'sirlar: globalashuv, ommaviy madaniyat, yoshlarning nisbatan milliy san'at o'zaklaridan yiroqlashuvi kabi hodisalardan himoya qilish zarur. Buning uchun muntazam milliy ma'naviyat va uning barcha shakllarining tarixiy, merosiy salohiyatini saqlab qolish va shu bilan birga milliy san'atning umuminsoniy estetik qadriyatlar, o'zga millatlar san'atining ilg'or elementlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash talab etiladi. Buning uchun milliy san'atni o'zga millatlar san'ati va qadriyatlari bilan integratsiya jarayonlariga kirishda to'g'ri yondashuvni izlash va uni to'g'ri qo'llashga erishish zarur. Bu borada yoshlar milliy estetik ongini milliy manfaatlar asosida rivojlantirish, uni milliy qadriyatlarni asrash tomonga yo'naltirish orqali milliy san'atni himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Milliy san'atni asrab - avaylash va himoya qilish millat va uning tarixini saqlash demakdir. Milliy san'at aksiologik xususiyati tufayli yashovchadir. U milliy ehtiyojlarga javob berar ekan, dolzarb bo'ladi. Bunday ehtiyojlarning borligi milliy

¹⁷⁷Турсунов Л.Э. ва бошқалар. "Оммавий маданиятга қарши курашишда эстетик имунитетни шакллантириш масалалари. Глобаллашув ва миллий-маънавий тараққиёт тенденциялари. Тошкент: Тошкент кимё-технология институти, 2015.-Б.-Б.354.



san'atni ham taraqqiy etishi uchun imkon yaratadi. Bunday sharoitda milliy san'at tarqalayotgan zamonaviy san'at elementlariga nisbatan ko'pchilik uchun muhim bo'lib, san'at sohasida yetakchilik mavqeiga ega bo'ladi.

Jamiyatning moddiy va ma'aviy madaniyati ortib borgani sari o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga tobora jiddiy va mas'uliyat bilan yondoshish talab etiladi. Milliy raqs, musiqa madaniyati va san'ati tarixida dunyoga tanilgan ko'plab sozanda va xonandalar, raqs san'atining ustalari faoliyat olib borgan. Ular milliy san'atni dunyoga tanitganlar. Ularning san'at sohasidagi unumli faoliyati, tajribasi, hozirgi kunda san'atning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan professional yoshlar uchun va ikkinchi tomondan, san'atga, go'zallikka intiluvchi mamlakatimiz yoshlarining estetik tarbiyasi borasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa shuki, raqs bilan shug'ullanayotgan inson jismoniy energiyasi va unga bog'liq ravishda ruhiy energiyasi yuzaga chiqadi va buning asosida raqs orqali o'zining mohiyatini, ichki dunyosini, ijodiy o'ziga xosligini aks ettiradi. Jismoniy harakat insonning tafakkurini yuksaltiradi. Ularda borliqqa estetik munosabatni shakllantradi, go'zallikni anglashiga yordam beradi. Shunday qilib milliy raqs san'ati insonni milliy ruhda tarbiyalashi bilan birga unda o'z vataniga, millatiga muhabbat tuyg'usini shakllantiradi. Insonning yuksak ma'naviy inson bo'lib yetishib, barkamol shaxs sifatida tarbiya topishida katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayev B.S., Rustamov V.K.. Madaniy tatlbirlarni tashkil ctish mahorati. - Toshkent.: «Fan va texnologiya», 2016, -B. 14.
2. Очерки истории арабской культуры V-XV вв. Главная редакция восточной литературы.-Москва: Наука, 1982.- С.140.
3. Турсунов Л.Э. ва бошқалар."Оммавий маданиятга қарши курашишда эстетик имунитетни шакллантириш масалалари. Глобаллашув ва миллий-маънавий тараққиёт тенденциялари. Тошкент: Тошкент кимё-технология институти, 2015.-Б.-Б.354.
4. Нажметдинова, М. (2022). Оммавий-маданий тадбирларнинг назарий асослари. *Общество и инновации*, 3(3/S), 473-479.
5. Нажметдинова, М.М. (2022). ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Science and innovation*, 1(1), 892-903.
6. Нажметдинова, М. М. (2022). ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ОМИЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 584-588.
7. Najmetdinova, M. (2022). ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ. *Science and innovation*, 1(B6), 282-287.



8. Нажметдинова, М. (2022). Общественно-культурные мероприятия теоретические основы. *Общество и инновации*, 3 (3/S), 473-479.
9. Najmetdinova, M. (2022). THE ROLE OF PUBLIC-CULTURAL EVENTS IN RAISING YOUTH'S SPIRITUAL OUTLOOK. *Science and Innovation*, 1(6), 282-287.
10. Kizi, S. O. S., & Mamasodikovna, N. M. (2022). ЎЗБЕК МУСИҚА САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР. *Oriental Art and Culture*, 3(1), 585-588.
11. Najmetdinova, M. M. (2023). YOSHLARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA-AJDODLAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1185-1191.
12. Нажметдинова, М., & Жўрабоева, Х. (2023). МАҚОМ САНЪАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 813-817.
13. Қамбаров АА, М. С., & Нажметдинова, М. М. (2021). Ўзбек санъати тарихи. *Фарғона нашриёти*.
14. Najmetdinova, M. (2023). YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISHDA OMMAVIY-MADANIY TADBIRLARNING FALSAFIY TANLILI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6), 17-24.
15. Mirzakarimova, R., & Najmiddinov, G. (2023). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA MUSIQA DARSINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6 Part 2), 25-30.
16. Турсунова Лайло Ергашевна. (2023). МУСИҚА МАДАНИЯТИ ТУШУНЧАСИ МАЗМУН-МОҲИЯТИ, ТАРКИБИ ВА КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES, 2(17), 20-23.
17. Турсунова, Л. (2023). ЁШЛАР МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИНИ ҲАЁТГА ТАДБИҚ ЭТИШ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(5 Part 2), 23-34.
18. Erkindjanovna, Z. G., & Ergashevna, T. L. (2022). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN "O'ZBEK XALQ CHOLG'U ORKESTR" LARI UCHUN REPERTUARLAR TANLASH MASALASI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(10), 61-63.
19. Laylo, T. (2022). FUNCTIONS OF MUSICAL CULTURE IN THE FORMATION OF A SPIRITUAL WORLD VIEW. *World Bulletin of Social Sciences*, 6, 72-77.
20. Tursunova, L., & Xoliqova, S. (2022). МАКТАБДА МУСИҚА ФАНИНИ О'QITISHDA YANGICHA YONDASHUV. *Science and innovation*, 1(B8), 782-785.
21. Nazarova, I.Z. (2022, May). FACTORS IN THE ART OF NATIONAL DANCE IN YOUTH EDUCATION. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 38-40).



22. Назарова, И. (2023). МАЪНАВИЙ ЯНГИЛАНИШ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ РАҚС САНЪАТИНИНГ АМАЛИЁТДАГИ МЕЗОНЛАРИ. Евразийский журнал академических исследований, 3(8), 144-149.

22. Nazarova, I. (2023). HISTORICAL STAGES OF UZBEK NATIONAL DANCE ART . International Conference on Multidisciplinary Research, 1(4), 49-54.

23. Mannopov, S., Najmetdinova, M., Ataboeva, S., Nazarova, I., & Mo'yidinov, J. (2021). Analysis of Research on Aesthetic Features of Uzbek Folk Music. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).